

"TASDIQLAYMAN"
Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasi bosh vrachi

A.Faxriyev

2022



"Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli
Jilvon OSHP ko'cha qismini yo'laklarini joriy ta'mirlash."

TEXNIK TOPSHIRIQ

Buxoro- 2022 yil

Tanlov xujjatlarining mazmuni:

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma
- II. Texnik qism
- III. Narxlar qismi

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1. TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

1. Tanlov predmeti: "Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli Jilvon OSHP ko'cha qismini yo'laklarini joriy ta'mirlash."

1.2. Tanlov oxirgi qiymati _____ sum . Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Maxsulot bo'yicha Texnik topshiriq tanlov xujjatlarining texnik qismda ilova qilingan.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kun.

1.5 Ishlarni boshlash muddati avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab xisoblanadi.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasi, (bundan keyin-"Buyurtmachi" deb ataladi) -tanlav tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili:, Shofirkon tuman Navruz kuchasi №117 uy

2.2. Tanlov “Buyurtmachi” tomonidan tanlovlar o’tkazish bo’yicha tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan o’tkaziladi

2.3. Tanlov

“Buyurtmachi” tomonidan tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o’tkaziladi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko’rsatishga ixtisoslashgan, tajribaga ega bo’lgan barcha yuridik maqomga ega bo’lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar quyiladi:

tanlov predmeti qiymatining kamida 15 foizi miqdoridagi aylanma mablag’larining yoki ko’rsatib o’tilgan mablag’larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo’lgan mehnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

tanlov ob’ektiga o’xshash ob’ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o’z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to’g’risidagi ma’lumotlar;

tanlov ob’ektida o’z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo’ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo’lmagan xolda);

Nizom mablag’i miqdori.

3.3. Agar tanlov predmeti bo’lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog’lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo’lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo’lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo’shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

4. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH

4.1. Ishtirokchilar o'z takliflarini elektron ko'rinishda (etender.uzex.uz) portaliga elektron tanlovlar o'tkazish uchun joylashtirishli lozim.

4.2. Tanlov uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va xujjatlar, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" ixtiyoriga ko'ra o'zbek yoki rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.3. tanlov xujjatlarida quyidagilar taqdim etilishi lozim:

-Texnik qism, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablarni va bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;

4.4. Tanlov ishtirokchisi:

-faqat bitta taklif berishi mumkin;

- taqdim etilayotgan xujjatlarning haqiqiyliigi va ma'lumotlarning haqqoniyiligiga to'liq javobgar bo'ladi;

- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar

5.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

5.3. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni xaqiqiyliigi va to'g'riligiga javobgardir. G'olib ishtirokchi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishga majburdir.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Davlat buyurtmachisi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

6.2. Tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlov hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

6.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

6.4. Tanlovning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

6.5 Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.